

Korxonada Hayot Faoliyati Xavfsizligi Masalalari

Yahyoyev To'liqin Ismatullayevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Xozirgi kunda xavfsizlik masalalari yanada keskinlashdi. Fan, texnologiya, sanoatning rivojlanishi odamlar uchun yangi xavf-xatarlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shunday, o'tgan asrda yadro fizikasi va atom qurollarining yaratilishidagi katta kashfiyotlar radiatsiya xavfining paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu maqolada hayot faoliyati xavfsizligi to'liq ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat muhofazasi, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, zonal sistema, kabina.

Kirish.

Mehnat muhofazasi - inson ning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyatining saqlanishiga qaratilgan tadbirlar. Qonun hujjatlarida mehnat jarayonida qo'llaniladigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika chora tadbirlari belgilab qo'yiladi. Mehnat qiluvchi shaxs xavfsizligi, salomatligi, mehnat qilish qobiliyatini himoyalash, sog'lom mehnat sharoitlari yaratish, kasb kasalliklari yuz berish xavfini oldini olish, ishlab chiqarishda jarohatlanishlarga yo'l qo'ymaslik kabilar **mehnat muhofazasi** oldidagi vazifalar hisoblanadi¹.

Xodimlarning turli-tuman psixologik zo'riqishlarga boy, ijodiy va ma'suliyatli faoliyati ular uchun ish joylarida tegishli qulay sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Biz o'rganayotgan "Oqtoshdon" OAJ da ham xodimning ish joyi zarur tashkiliy-texnikaviy vositalar, asbob-uskunalar va o'z vazifalarini bajarish uchun kerakli bo'lgan maxsus moslamalar bilan jihozlangan mehnat faoliyati zonasidir. Ish joyini ilmiy tashkil qilish va jihozlash quyidagilarni talab etadi:

- joylarni oqilona rejalashtirish
- ish xususiyatiga muvofiq zaruriy narsalar bilan ta'minlash
- ushbu jihozlarni to'g'ri joylashtirish
- ish joylarga zarur xizmat ko'rsatish

Tahlil va natijalar.

Ish joyini tashkil qilish uchun, eng avvalo, xizmat xonalarini oqilona rejalashtirish muhim. U o'zaro hamkorlik qiluvchi xodimlar harakatlarini, axborot oqimini va xodimlar orasida aloqalar suratini o'rganish va tahlil qilishga aslangan bo'lishi kerak. Xizmat xonalarini reja asosida qurish va organ bo'linmalariga, xodimlar o'rtasida taqsimlashda ularning ish jarayonidagi funksional aloqadorligi, mehnatining mazmuni kabilar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xodimlarning kabinetlari yoki zonal sistema bo'yicha joylashtiriladigan ish o'rinlari bir necha guruhlariga jamlanishi yoki alohida joylashtirilishi mumkin.

Xodimning mehnatiga axborot, hujjatlar bilan xos bo'lganligi sababli, ish joyini tashkil qilish axborot va hujjatlarining eng maqsadga muvofiq tarzda joylashtirilishini, tezda qidirib topilishini, materillardan foydalanish bilan bog'liq ortiqcha harakatga chek qo'yilishini, ma'lumotlarni qattiq

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Mehnat_muhofozasi

va ko‘z bilan nazorat qilinishi ta‘minlashi kerak.

Fiziologik nuqtai nazardan, mehnat jaroyoniga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun sarflanadigan jismoniy va aqliy kuch harakatlardan iborat. Ish joyini oqilona jihozlash ishlovchini ish jarayonida ortiqcha mehnatdan xalos qilishini bildiradi. Inson organizmi, fiziologik nuqtai nazardan, uzatmalar va dastaklar kompleksi bo‘lib, buning natijasida ayrim harakatlar boshqalariga qaraganda osonroq bajarilishi mumkin. Mehnat qurollarini joylashtirish va qo‘llash borasida ushbu tavsiyalar berilgan:

- Mehnat materiallari va qurollarini harakatlarning eng maqbul ketma-ketligini ta‘minlaydigan qilib joylashtirish zarur.
- Material va narsalar oldindan tayyorlangan bo‘lishi va muayyan joyda bo‘lishi kerak.
- Mehnat qurollari va hujjatlar oson va qo‘shimcha vaqt sarflamay olinadigan qilib joylashtirilishi kerak.
- Turli mehnat qurollarini (masalan, qalam va o‘chirgich) birlashtirish mumkin
- Yozuv stoli va ish kreslosi muayyan bir ish yoki muayyan xodimga moslashtirilgan bo‘lishi kerak, ammo xodimning yozuv stoli yoki ish kreslosiga moslashtirib bo‘lmaydi.
- Xodim yozuv stolidan hujjatlar materiallar taxlash uchun emas, balki faqat joriy ish uchun foydalanishi kerak.
- Ish joyi barcha materiallar va mehnat qurollari ko‘rinib turadigan qilib tashkil qilinishi kerak.
- Ish joyi iloji boricha tashqi ta‘sirlardan ajratilgan bo‘lishi kerak.

Amaliyotda ushbu talablarga ko‘pincha rioya qilinmaydi. Aslida esa ajratilganlik odamlar ko‘z o‘ngida ishlashda yuzaga keladigan asabiylashishni oldini oladi. Bu taxliliy va ijodiy ishni bajarishda ayniqsa muhim. Bunga, masalan, mebelni puxta o‘ylab joylashtirish evaziga erishish mumkin. Yozuv stolini xodimlar bir birini uzluksiz kuzatuvda bo‘lmaydigan qilib joylashtirgan ma‘qul. Agar xizmat xonasida stollardan tashqari seyf va shkaflar mavjud bo‘lsa, ular yordamida nisbatan aratilgan ish joylari yaratish mumkin. Bunda yuzaga keladigan tabiiy yorug‘lik yetishmasligini suniy yorug‘lik evaziga qoplash mumkin.

Xulosa. Afsuski, hozirga qadar xavflarning yetarlicha to‘liq taksonomiyasi yaratilmagan. Bu esa har qanaqa xavfning oldini olishni ta‘minlashni chegaralab qo‘yadi. Shuning uchun olimlar, soha mutaxassislari oldiga xavflarning taksonomiyasini yaratish bo‘yicha ilmiy va metodologik izlanishlar olib borish maqsad qilib qo‘yilgan.